

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi
NOTO'LIQ OILALARDA VOYAGA YETAYOTGAN
O'SMIRLARGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUV

Artiqov Toxir Toshmurod o'g'li

*Samarqand viloyati Bulung'ur tuman 70-umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. Maqolada noto'liq oila masalasiga bag'ishlangan ishlarning tahlili va muallifning shaxsiy qarashlari asosida noto'liq oilaning kelib chiqish omili va sabablari, turlari, bola shaxsi shakllanishiga ta'siri ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: noto'liq oila, oila funksiyalari ,noto'liq oila turlari, oilaga psixologikpedagogik yordam, shaxsni shakllantirish

Bizga ma'lumki mustaqillik qo`lga kiritilinganidan keyin O'zbekistonda yashab kelayotgan turli millat va elatlar qisqacha qilib aytilganda xalq hayotida misli ko'rilmagan ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki so'nggi o'n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarblashdi. Shulardan biri – oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto'liq oilalar va ularda tarbiyalanib katta bo`layotgan tirik yetimlar sonining keskin o'sishidir.



Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Shaxs ma`naviy qiyofasi, uning dunyoqarashi, tasavvuri va e`tiqodiga aloqador barcha ko‘nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma`noda, oila-haqiqiy ma`naviyat o‘chog‘i, tarbiya omili muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar ham inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati va ona mehri orqali amalga oshiriladi. Mustaqil davlatimizda oilalarning ahloqiy, ma`naviy va ruhiy barkamolligini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan sayi-harakatlar kun sayin ortib bormoqda. Muhtaran yurtboshimiz ta`biri bilan aytganda oila mustahkamligini ta`minlash, uning ijtimoiy funktsiyalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, oilaning farzandlar tarbiyalashdagi nufuzini oshirishga ko‘maklashish hamda yosh erxotinlarning moddiy hamda maishiy shart-sharoitlarini yaxshilash borasidagi aniq dasturiy tadbirlari mamlakatimizda oila va nikoh munosabatlarining qadriyat sifatida e`tirof etilishini ta`minlamoqda. Zero, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek; «Oila kichik vatan, oila tinch bo‘lsa, vatan tinch bo‘ladi».

Odob, ahloq, andisha asosiga quriladigan bunday munosabatlar bir qaraganda to‘laqonli ijtimoiy individni shakllantirish uchun yetarlidek tuyuladi. Bularning hammasi aslida oilaning baxti, oila ahzolarining qoniqish hissi uchun yetarli bo‘lishi kerak edi. O‘zbek oilalarida ota va ona, ota-onva bolalar, bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ijobiy ko‘rinishlari haqida behisob fikrlarni aytish mumkin. Lekin ming afsuski xali hozir ajralishlar sonining ko‘pligi, ajralmay, lekin baxtsiz yashayotgan oilalarning yetarlicha topilishi bizning bu yerda nimanidir hisobga olmayotganligimizni, nimanidir unutib qo‘yayotganligimizni, nimagadir yetarlicha e`tibor bermayotganligimizni ko‘rsatadi.



Noto‘liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda fikrimizcha quyidagilarga e’tibor berish lozim.

1. Noto‘liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Bu psixologik pedagogik maslahat, pedagogik trening, psixologik monitoring, psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (ota-onalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin. Bunda har bir noto‘liq oilani o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olish zarur.

2. Noto‘liq oilada o‘sigan va o‘z sohasida taniqli bo‘lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o‘quvchilari bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib, shunday muvaffaqiyatlarga erishganliklari haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto‘liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham foydalidir.

3. Noto‘liq oilada o‘sayotgan o‘g‘il bolalarni (agar o‘z otasi namuna vazifasini bajara olmayotgan bo‘lsa) qarindoshlar, qo‘snililar yoki yaqin tanishlar orasida har tomonlama namuna bo‘ladigan kishi vaqtincha otaliqqa olishi. Otaliqqa olgan erkak yoki ayol vaqtiga- vaqtiga bilan o‘z farzandlari bilan birga noto‘liq oilada

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

voyaga yetayotgan bolaning bo'sh vaqtini madaniy tashkil etishi lozim, toki otasiz o'sayotgan bola yoki qiz to'laqonli oiladagi munosabatlar, ota va ona mavqeい, ular orasidagi namunali munosabatlarni idrok etib, o'ziga kelgusi hayotida namuna sifatida olsin.

4. Oila funksiyalarni past darajada bajarayotgan noto'liq, moddiy jixatdan o'ta nochor oilalardagi bolalarni mahalla, psixolog tavsiyasiga ko'ra onaning roziligi bilan vaqtincha bir yilga mehribonlik uylariga qabul qilish va bir yil o'tgach muddatini uzaytirish masalasini ona ishtirokida mahalla faollari, psixolog, mehribonlik uyi rahbarlari ko'rib chiqishlari tavsiya etiladi.



Noto'liq oila haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, noto'liq oilalar turlicha yuzaga keladi. Oilada er-xotinlardan birining vafot etganligi tufayli yoki ularning ajralishi tufayli oila noto'liq bo'lib qolishi mumkin. Oilada faqat bir ota yoki ona bo'lsa, bunday oila noto'liq oila deb ataladi. Albatta oilada ota yoki onaning vafot etishi bu ulkan fojea, lekin bunday oilalarda marhumning ruhi hurmati, unga nisbatan, uning sha"niga ijobiy munosabatlar saqlanib qoladi. Biroq er-xotinning ajralishi sababli yuzaga kelgan noto'liq oilalarda «tirik yetim» bolalar qoladi. «Tirik yetimlik» jamoatchilik o'rtasida, ayniqsa bolalar jamoalarida (bo g'chada, maktabda, tengdoshlar davrasida) nisbatan kuchliroq qoralanadi. Ajralish faqatgina ajralgan erxotinlarga emas, balki ajralish oqibatida otasiz yashayotgan farzandlarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ajralish otasiz yashayotgan qiz bolaning his-tuy g'ulariga, onasiga bo'lgan mehriga, qiz bolada shakillanadigan ota obraziga va otasiz o'sayotgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qizning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda bu masala yanada dolzarbligni taqozo etmoqda va davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Chunki, mustaqil davlatimizning taraqqiyoti kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarga, ularning dunyoqarashiga, oilaviy muhitning sog'lomligiga, mustahkamligiga uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoumarov G., Rasulova Z. Neft ensiklopediyasi. - T.: "Ilm-Ziyo Zakovat", 2016 yil.-270- b. Lapshina E.A. Maktab ta'lim tizimida to'liq bo'limgan oilalar o'quvchilarining raqobatbardosh shaxsini shakllantirishning pedagogik shartlari. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Ulyanovsk. 2010 yil.
2. Amber Smith. The influence of Family Dynamics in Predicting Juvenile.
3. Nikolaeva Ya.G. To'liq bo'limgan oilada bolalarni tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning pedagogik shartlari: Chuvash Respublikasi materiali bo'yicha. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Cheboksari, 2013 yil.
4. Zelenchukova S.V. To'liq bo'limgan oilalardagi o'smirlarni tarbiyalashning ijtimoiypedagogik shartlari. / Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya va avtoreferat. - Barnaul, 2012 yil